

O'ZBEK TILI DARSLARIDA TALABALAR MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

*Усмонова Ойистахон Юлдашалиевна,
ТошДТУ доценти, п.ф.н*

***Аннотация.** Ushbu maqolada talabalarning mustaqil o'qish malakalarini tarkib toptirish hamda ta'lim jarayonida yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish metodikasining ilmiy-amaliy jihatlari ko'rsatilgan hamda o'zbek tili darslarida talabalarning mutolaa madaniyatini yaxshilashning samarali metodlari yoritilgan.*

***Tayanch iboralar:** kitobxonlik madaniyati, mutolaa, metodika, badiiy asar, yozuvchi, adabiy tahlil, mustaqil ish, ijodiy fikr, topshiriq.*

***Аннотация.** В данной статье изложены научно-практические аспекты методики формирования навыков самостоятельного чтения студентов и развития культуры чтения у молодежи в процессе обучения, а также освещены эффективные методы повышения культуры чтения студентов на уроках узбекского языка.*

***Ключевые слова:** культура чтения, методика, литературное произведение, писатель, литературный анализ, самостоятельная работа, творческая мысль, задание.*

***Annotation:** In this article it is demonstrated that establishing students' self-study skills and scientific-practical features of developing methodology of youngsters' reading skill in the process of education. Furthermore, it is illuminated effective methods of students' reading culture in the uzbek language lessons.*

***Keywords:** reading culture, reading, fiction, writer, literary analysis, independent work, creative opinion, task.*

Yoshlarni kitobxonlikka va badiiy adabiyotga qiziqtirish vositasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish, nafosat tarbiyasi badiiy asarlar tahlili orqali ro'y beradi. Badiiy asarni o'qishga o'rgatish orqali farzandlarimizni ma'naviy kamolatga yo'llaymiz.

Texnika oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va o'zbek tilining sohada qo'llanishi darslarida mustaqil ishlar uchun kitob tanlash va mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat darslarini samarali tashkil etish orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash salohiyatini oshirish, kitobxonlik madaniyatini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, so'z zahirasini boyitishga erishish mumkin.

Talabalarning mutolaa madaniyatini va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda **“To'xtab o'qish”** strategiyasi samarali natija beradi. Bu strategiyadan mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat darslarini samarali tashkil etishda foydalanishlari tavsiya etiladi.

O'zbek tilini o'qitish jarayonida Ablulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasini o'qishda **“To'xtab o'qish”** strategiyasini quyidagi tartibda qo'llasak, talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda samarali natijaga erishamiz:

I JARAYON: Asarni o'qishdan oldingi topshiriqlar.

1. Talabalarlarga “Jinlar bazmi” hikoyasi bilan qanday tanishib chiqqaningiz haqida imkon qadar samimiyat bilan so'zlab beriladi. Bu boradagi so'zlash uzoq vaqt olmasin, 3-4 daqiqa yetadi. So'zlar orqali asar syujetini yoritilmaydi, his-tuyg'ular tavsiflanmaydi. Taassurotlar o'rniga muallif shaxsi va asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Bunda Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobida Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasi to'g'risida: “...bu hikoya dadamning aytishlaricha, 1916-yilda yozilgan. Lekin birinchi bor 1921-yilda “Sharq chechagi” jurnalida bosiladi”, deb ma'lumot berganligini, keyinchalik asar 1925- va 1936-yillarda nashr etilganligini aytib o'tish kerak.

2. Asarning nomini muhokama qilish. **“Nega asar aynan “Jinlar bazmi” deb atalgan? Bunday nomga ega bo'lgan asarda nimalar haqida hikoya qilingan bo'lishi mumkin?”** Javob berganida kimdir shu muallifning boshqa asarlarini ham

yodga olishi, kimdir folklor asarlariga murojaat etishi, ba'zilar esa o'z hayotiy tajribalariga murojaat qilishi mumkin.

II JARAYON: Asarni o'qish davomidagi topshiriqlar.

1. Matn bilan muloqot qilayotgan boshlovchi sifatida, matndan ikki-uchta to'xtab o'qiladigan o'rinlarni oldindan ajratib olinadi. To'xtash vaqtida oqituvchi o'quvchilarda tafakkur yuritishga rag'bat uyg'otuvchi savollar bilan murojaat etadi Hikoya "*Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma», deb tangriga yolborib qo'yar edim*", deb boshlanadi. Bu gapni o'qib bo'lgach: **Eslab ko'ring: Bolaligingizda jinlar haqida eshitganmisiz va bu sizda ham qo'rquv uyg'otganmi?"** O'z-o'zidan tushunarliki, bunda o'quv maqsadlarini ham nazardan soqit qilmaslik zarur: tushunarsiz so'zlarni muhokama qilish, badiiy ifoda vositalarini tahlil etish lozim.

2. Asarni o'qishda davom etiladi va "*Bu yerda biror ziyofat bo'laturgan bo'lsa, erta bilan uning bir asari ko'rinar edi. Yosh-yalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, xara-ko'chalar, deb fikrimdan o'tkazdim. Men bazm bo'layotgan maydon orqali o'tmoqchi bo'lib, devor nahrasidan oshib tushdim...*" parchasidan so'ng to'xtab mana bu xildagi savollar bilan murojaat etiladi: **O'ylab ko'ring: Asar qahramonini bazmga borishga nima majbur etdi? Sizningcha, endi nimalar yuz berishi mumkin? Ushbu parcha Sizda qanday tuyg'ular uyg'otdi?**

3. "*Odatda majlisga kirib o'ltirgandan keyin fotiha o'qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora bo'lib, fotiha o'qish ham yodimdan chiqqan*" parchasidan so'ng to'xtab quyidagi savol beriladi: **Tushuntirib bering: Odatda fotiha o'qilishi kerak edi, biroq O'sar akaning majlisga kirib o'ltirgandan keyin yodidan chiqqan fotihaning oqibati qanday bo'lishi mumkin?** Ma'lumki, jin va shayton Olloh nomi zikr etilgan joyda o'z amallarini bajara olmay qoladi. Bu tushunchaga doir mo'tabar manbalarni Abdulla Qodiriy juda yaxshi bilgan. Talabalar asardagi "*Qosh qorayib, qorong'i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-qo'llarimni yuvib, salla-choponimni kiyganimda obdon qorong'i bosgan edi... Men bog'dan chiqq'anda xufton bo'lmasa ham shunga*

yaqinlashib qolg'an edi...”, parchasini eslaydilar. **Eslang: Shom bilan xufton oralig'ida esa kimlar bazm qiladi?** Shaytonlar quyosh botgandan to tun zulmati cho'kkuncha qo'yib yuborilishi haqida hadis bor. Tasvirga olingan har bir detalga, har bir so'zga jiddiy e'tibor beradigan hikoyanavis o'z qahramonini jinlarga xufton bilan shom orasida yo'liqtiradi. Bunday ma'lumotga ega bo'gan talaba o'qilmagan fotiganing oqibatini ayta oladi.

“Mashq sihrlik edi... Men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqda, asirlanmoqda, ichimdan bir to'lqin kelib o'zimni qayerga urarimni bilmay entikmakka boshladim... Axir chidab turolmadim, piq-piq yig'lay boshladim. Nega va nima uchun yig'lar edim, buni o'zim ham bilmayman.” **Baho bering: Osar aka'ning bunday ruhiy holatga tushganini qanday izohlaysiz?** Hikoyaning davomi yanada g'alati *“Axir shodliklarim yuragimga sig'madi. O'z erkim bilan emas, allaqanday bir kuch o'tirgan joyimdan turg'uzib yubordi. Qizning yoniga kirib men ham o'ynab ketdim”*. **Tahlil qiing: O'sar akani erkiga qarshi o'ynatib yuborgan kuch qanday kuch edi? Agar hikoya sahnalashtirilsa shu joylariga, sizningcha, qaysi kuy mos kelar edi?**

III JARAYON: Asarni o'qib bo'lgandan so'nggi topshiriqlar.

Hikoyani o'qib bo'lgach, o'qituvchi talabalardan **“Nega qahramonning ismi O'sar aka, deb qo'yilgan? Bunda qandaydir ramz bormi?”**, kabi savollar berib talabalarni o'ylashga, mushohada qilishga undaydi. Shu yerda o'qituvchi asarni birinchi bor 1921-yilda “Sharq chechagi” jurnalida bosilgan variantida qahramonning ismi “To'g'onboy aka”ni adib keyingi nusxada “O'sar aka”ga o'zgartirgani haqidagi ma'lumot bilan tanishtiradi. Aslida, o'z qahramonlari uchun original ismlar qo'yadigan, ismlarni o'z tabiatiga mos so'zlatadigan Qodiriy tanlagan har ikki ism ham e'tiborga munosibdir. Chunki jinlarga uchragan odam allaqanday to'g'onga, g'ov-to'siqqa duch kelgan bo'ladi. Shu ma'noda, hikoya qahramoni uchun “To'g'onboy” ismi juda mos tushadi. Adib bu ism zimmasidagi yukdan qoniqmaydi, chamasi, uni keyingi nusxada “O'sar aka”ga almashtiradi. Bizningcha, boshidan o'tgan hodisani ta'sirchan so'zlayotgan kishi mulohaza qilayotgan, fikriy jihatdan o'sayotgan odamdir. Talabalar shu ramzni ilg'ay olsalar

hikoyadan olingan estetik samaradorlik yanada ortadi. **Nima deb o‘ylaysiz, hodisa “quruq xayol” yoki haqiqatmi?** Muallif hodisaning “quruq xayol” yoki haqiqat ekani yuzasidan hukm bermaydi, masalani o‘quvchi muhokamasi, fikrlab izlanishi uchun ochiq qoldiradi. Bunday original xotima sababli o‘quvchi tasavvurida hikoyaning ikkinchi umri boshlanishi tabiiy.

Xulosa qiling: Yozuvchi “Jinlar bazmi” deb qaysi voqealarga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin?

“Adabiyotshunoslikda “kitobxon javobi” (ayrim manbalarda “retseptiv estetika” deb yuritiladi) nazariyasini (inglizcha reader-response theory) olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Wolfgang Izer (Wolfgang Izer, 1926-2007) fikriga ko‘ra, asar yozilgan va yozilmagan qismlardan iborat. Kitobxon asarni o‘qiy boshlar ekan, undan ma’lum bir narsani kutadi. Ko‘pincha, kitobxon kutgan narsasini to‘liq olmaydi (muallif ko‘p savollarga javoblarni ochiq qoldiradi), bunday holda bo‘shliqlarni kitobxonning o‘zi to‘ldiradi. Bu bo‘shliqlar asarning yozilmagan qismidir. Bo‘shliqlarni qanday to‘ldirish esa kitobxonning o‘ziga bog‘liq, demak, har xil kitobxon bu bo‘shliqlarni har xil to‘ldiradi.” [1,51] Aynan mana shu “Jinlar bazmi” hikoyasini o‘qib bo‘lgandan so‘ng “kitobxon javobi” nazariyasiga ko‘ra, kitobxon kutgan narsasini o‘zi to‘ldiradi, ya’ni asardagi voqealarni davom ettirish yoki asarga boshqa yakun yozishi mumkin.

“To‘xtab o‘qish” strategiyasi talabalarning badiiy asarni o‘qish, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni uyg‘otib, mutolaa madaniyatini oshiradi, mustaqil ijodiy izlanishlarini rivojlantiradi, mustaqil ravishda erkin fikrlashlarini kuchaytiradi hamda ijodiy tafakkurini, kreativlikni rivojlantirishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” – 2020 T.170-b.
2. Nargis Akbarovna Kudratkhodjaeva, Oyistakhon Yuldashalievna Usmonova, Zulkhumor Nazarovna Usmonova. (2020). Issue Of External Sema In Uzbek Language. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2020. 2(10), 297-302
3. Usmonova O., Kudratxodjayeva T. “Innovate methods on efficient teaching of languages”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021, AQSH.
4. Usmonova O., Raximova F.Sh., Saidnomonov A.K., Akbarova D.A. “Problems of Linguovognitive Learning of the Uzbek Language”. Nat. Volatiles & Essent. Oils, 2021; 8(5):11806-11813 б. Turkiya.
5. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.
6. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
7. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
8. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.